

## TARBIYACHI SIFATLARINI TAKOMILLASHTIRISHIDA EGALLASHI LOZIM BO'LGAN PSIXOLOGIK XISLATLAR

Nizamova Sh.T.

Angren shahar 16-DMTT direktori

### ANNOTATSIYA

Maqolada bugungi kunda yurtimizda Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga ta'lif berish jarayonini takomillashtirishning asosiy vazifalaridan biri bo'lajak tarbiyachining ilmiy va uslubiy ta'minlanganligini, uning kasbiy tayyorgarligini oshirishdan iborat. Yangi talablarga javob beruvchi zamonaviy, maktabgacha ta'lif tashkiloti tarbiyachisining yuksak bilim va kasbiy mahoratga ega bo'lishi talab etiladi.

Ota – ona o'z farzandini eng bilimdon, yuksak ma'rifatli, mahoratli, ijodkor, tashabbuskor, mehribon tarbiyachining tarbiyasiga berishni istaydi. Maqolada bo'lajak tarbiyachilarga ilk ish jarayonidan boshlab, maktabgacha ta'lifning asl mohiyati - bola va tarbiyachining hamkorlik faoliyati ekanligini, bola tarbiyasining asl maqsadini hamda bola ruhiyatini to'g'ririvojlantirishni ñorganib chiqamiz.

**Kalit so'zlar:** Tarbiyachi, bola, his-tuyg'u, ruhiy holatlar, jarayon, zamonaviy ta'lif, takomillashtirish va shakllantirish.

### АННОТАЦИЯ

В статье одной из основных задач совершенствования процесса обучения детей дошкольного возраста в нашей стране сегодня является повышение научно-методической обеспеченности будущего педагога, его профессиональной подготовки. От педагога современной дошкольной образовательной организации, отвечающей новым требованиям, требуется обладать высокими знаниями и профессиональными навыками.

Родители хотят отдать своего ребенка к самому знающему, высокообразованному, умелому, творческому, предпримчивому, доброму воспитателю. В статье мы узнаем о настоящей сути дошкольного образования – сотрудничестве ребенка и педагога, настоящей цели детского образования и правильном развитии психики ребенка, начиная с первого процесса работы.

**Ключевые слова:** Воспитатель, ребенок, эмоция, психические состояния, процесс, современное образование, совершенствование и формирование.

## ABSTRACT

In the article, one of the main tasks of improving the process of education for children of preschool age in our country today is to increase the scientific and methodological provision of the future educator, and his professional training. A teacher of a modern preschool educational organization that meets the new requirements is required to have high knowledge and professional skills.

Parents want to send their child to the most knowledgeable, highly enlightened, skillful, creative, enterprising, kind educator. In the article, we will learn about the real essence of preschool education - child and educator cooperation, the real goal of child education and the correct development of the child's psyche, starting from the first work process.

**Keywords:** Educator, child, emotion, mental states, process, modern education, improvement and formation.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga ta'lim berish jarayonini takomillashtirishning asosiy vazifalaridan biri bo'lajak tarbiyachining ilmiy va uslubiy ta'minlanganligini, uning kasbiy tayyorgarligini oshirishdan iborat. Yangi talablarga javob beruvchi zamonaviy, maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisining yuksak bilim va kasbiy mahoratga ega bo'lishi talab etiladi.

Tarbiyachining siyosiy yetukligi bolalarni tarbiyalash sifati uchun xalq va jamiyat oldidagi o'z mas'uliyatini anglashga, ta'lim – tarbiya vazifalarini hal etishga ijodiy yondashishga, o'z mahoratini doimo takomillashtirib borish va ishdagi hamkasblarining o'sishiga ko'maklashishga yordam beradi.<sup>1</sup>

Ota – ona o'z farzandini eng bilimdon, yuksak ma'rifatli, mahoratli, ijodkor, tashabbuskor, mehribon tarbiyachining tarbiyasiga berishni istaydi. Ushbu ma'qola bo'lajak tarbiyachilarga ilk ish jarayonidan boshlab, maktabgacha ta'limning asl mohiyati - bola va tarbiyachining hamkorlik faoliyati ekanligini, bola tarbiyasining **asl** maqsadini hamda bola ruhiyatini to'g'ri rivojlantirishni o'rgatadi. O'z kasbining mohir ustasi bo'lish uchun - tarbiyachi maktabgacha ta'lim pedagogikasi, maktabgacha yoshdag'i bolalarning matematikasini, nutq o'stirish uslubiyotini, maktabgacha yoshdag'i bolalar psixologiyasi fanlarini chuqur egallagan bo'lishlari lozim.

"Tarbiyachi sifatlarini takomillashtirishida egallashi lozim bo'lgan psixologik xislatlar" ma'qolasi tarbiyachilarning o'quv tarbiyaviy faoliyatini tashkil qilish vosita va usullarini, o'quv – tarbiya jarayonida kelib chiqadigan muammolar va uning echimini to'g'ri hal qila bilish, innovatsion texnologiya usullaridan foydalanish,

<sup>1</sup> Erius. Scientific Journal Impact Factor (OAK 23) 2023-10. N.Sh.Gaziyeva "Tarbiyachi va uning maktabgacha ta'lim faoliyatida tutgan o'rni"). Special issue 12 october 2023.

tarbiyachi shaxsi egallashi lozim bo‘lgan sifatlarni takomillashtirish, ish faoliyatidagi qiyinchiliklarning to‘g‘ri echimini topishga yo‘naltiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2017 yil 30 sentabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni hamda “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq bu sohada yangi tizim yaratildi. Ushbu tizim oldiga maktabgacha ta’lim sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish, maktabgacha ta’lim tashkilotlarining davlat va nodavlat tarmog‘ini kengaytirish hamda moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta’minalash, maktabgacha ta’lim tashkilotlariga bolalarni qamrab olishni keskin oshirish, ta’lim-tarbiya jarayonlariga zamonaviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarini tadbiq etish orqali bolalarni har tomonlama intellektual, ma’naviy-estetik, jismoniy rivojlantirish, ularni mакtabga tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash vazifalari qo‘yildi.

Inson o‘z kundalik hayot faoliyati xilma – xil narsa va hodisalarining qandaydir xususiyat va belgilarini sezadi, ayrim narsalarni butunligicha, ya’ni barcha xususiyatlari bilan yaxlit holda idrok qiladi. Ilgari ko‘rgan, bilgan narsalarini xotirlab esiga tushuradi, o‘z diqqatini turli narsa va hodisalarga qaratib ular haqida fikr yuritadi, ya’ni tafakkur qiladi, o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlarini amalga oshirish yo‘lida irodasini ishga soladi, xilma – xil narsa va hodisalar ta’siridan hosil qilgan ichki kechinmalarini aks ettiradi, ya’ni narsalar va hodisalar bilan qilgan munosabatlaridan hosil bo‘lgan turli tuyg‘u – hissiyotlarini namoyon etadi, bo‘lib o‘tgan voqeа - hodisalar va kelajak haqida hayol suradi. Bularning hammasini, ya’ni sezgi, idrok, diqqat, xotira, tafakkur, iroda, hissiyot, hayol va boshqalarni biz bir so‘z bilan odatda ruhiyat yoki ruhiy jarayonlar deb ataymiz. Ana shu ruhiy jarayonlar namoyon bo‘lishini insonning ichki dunyosi deb ham yuritiladi.

Ma’lumki, har bir insonning o‘ziga xos xususiyatlari, ya’ni ehtiyojlari, qiziqishlari, ishonch va e’tiqodlari, malaka–odatlari, qobiliyatları, iste’dodlari, temperament tiplari, xarakter xislatlari bo‘ladi. Tarbiyachi o‘zining faoliyati davomida tashqi muhitdagi narsa va hodisalarni bilibgina qolmay balki faol harakat qilib, bu narsa va xodisalarni o‘zgartiradi. Tarbiyachi o‘zining faol harakatlari jarayonida tabiatni o‘ziga va o‘zining ehtiyojlariga bo‘ysindiradi. Aql – idrokini va iste’dodini namoyon qiladi. Faoliyat davomida o‘z qobiliyatidan samarali foydalanadi va bu qobiliyatlarini yuzaga chiqarishda ko‘p mehnat qiladi, o‘z ustida tinimsiz ishlaydi. Bu mashaqqatli mehnatlar mahsuli albatta o‘z natijasini ko‘p kuttirmay faoliyatdagi ilg‘orlikka olib keladi. Bunday mehnatlar zamirida tarbiyachining irodali ekanligidan darak beradi.

Tarbiyachining irodaviy harakatlari uning tug‘ilib o‘sigan ijtimoiy tarixiy sharoit bilan bog‘liq bo‘ladi. Ana shu ijtimoiy tarixiy sharoitning ta’siriga qarab insonda unday yoki bunday iroda sifatlari yuzaga keladi.

Irodaviy harakatlar ilgaridan belgilangan qat’iy maqsad asosida amalga oshirilar ekan, demak - har qanday harakatlar irodaviy harakatlar ma’lum bir maqsadni qo‘yishdan, ya’ni maqsadni qo‘yishdan boshlanadi. Lekin shuni aytish kerakki, maqsad belgilangandan so‘ng ham ishga kirishmasligi mumkin. Ana shunday paytlarda maqsad maqsadligicha qolib ketaveradi. U yoki bu maqsadni amalga oshirish uchun shu maqsadga erishtiruvchi yo‘l – yo‘riqlarni, sharoiti va vositalarni belgilash lozim bo‘ladi. Maqsad aniqlanib, shu maqsadga erishtiruvchi yo‘l – yo‘riqlar belgilangandan so‘ng tarbiyachi ma’lum qarorga keladi. Irodaning kuchliligi, mustahkamligi qabul qilingan qarorni ijro etishda ko‘rinadi. Irodasi kuchsiz tarbiyachilar o‘z oldilariga juda ko‘p oliyjanob maqsadlarini qo‘yanlari bilan ularni amalga oshirolmaydilar. Ana shunday hollarda ularning maqsadlari mo‘ljalga aylanib qoladi.

Irodaviy, ixtiyoriy harakatlarni amalga oshirishda nerv sistemasining umumiy sog‘lom holati ham juda katta ahamiyatga egadir. Masalan, uzoq davom etgan qattiq kasallikdan so‘ng nerv sistemasi nihoyatda madorsizlanib, odamning irodasi bo‘shashib ketadi. Tarbiyachi biron ishdan qattiq charchagan paytda ham nerv sistemasi zaiflashib, irodasi bo‘shashadi. Ana shuning uchun irodaning mustahkamligini ta’minalash maqsadida tarbiyachi vaqtı-vaqtı bilan dam olib turishi kerak.

Demak, tarbiyachi irodasining kuchliligi, qabul qilingan qarorni qat’iyatlilik bilan amalga oshirishda namoyon bo‘ladi. Irodaviy harakatlarning tarbiyachidan zo‘r kuch talab qiladigan tomoni shundaki, biror maqsadni belgilashda, shu maqsadni amalga oshirish yo‘l- yo‘riqlarini aniqlashda va qarorga kelish ham qarorni ijro etishda ham tashkilotdagi rahbarning tarbiyachisini qo‘llashi hamda motivatsiyalar berishi muhim ahamiyat kasb etadi. Rahbar tomonidan ma’naviy dalda va ko‘mak olgan tarbiyachining unib-o‘sishi, ijod qilishi va nihoyat o‘z kasbini sevib zamon talabi asosidagi innovatsion loyihali mashg‘ulotlarni bolaga etkazib bera oladigan qat’iy irodaga ega bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda tarbiyachining irodasi uning barcha faoliyatlarida juda katta ahamiyatga ega bo‘lgan ruhiy jarayondir. Bundan tashqari tarbiyachining irodaviy sifatlari yani qat’iylik, dadillik, mustaqillik, o‘zini tuta bilishi kabilalar tarbiyachining ijtimoiy faoliyatlarida ham g‘oyat zaruriy sifatlardir. Irodaviy sifatlarni tarbiyachining ilk faoliyat boshlagan (yoshlik) chog‘idan boshlab tarkib toptira borish kerak.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

- 1.O'zbekiston Respublikasining ilk va muktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari.– T. 2018yil
2. Xasanboyeva O.U va boshqalar. «Muktabgacha ta'lim pedagogikasi».T. -2012 yil
3. Shodiyeva Q “Nutq o'stirish uslubiyoti”. - T. 2009 y
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017 yil 30 sentyabrdagi “Muktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmoni.
- 5.Erius. Scientific Journal Impact Factor (OAK 23) N.Sh.Gaziyeva “Tarbiyachi va uning muktabgacha ta'lim faoliyatida tutgan o'rni”). Special issue 12 october 2023.
- 6.Muktabgacha ta'lim tashkilotlarida raqamli texnologiyalar asosida ta'lim jarayoni tashkil etish. Volume 2 Special Issue 10.D.SH.Isabekova.